

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLII ICHIMLIK LARGA QIZIQISHNING IJTIMOIIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOIIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOIIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYLLAR VA IJTIMOIIY NOMUTANOSIBLIK LAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

SOME CONSIDERATIONS ON TYPES OF PENALTIES AND THE CHARACTERISTICS OF THEIR CIVIL AND LEGAL STATUS

Kushbakov Shokhrux Khasan ugli

Associate Professor of the Department of Civil Law Sciences,
Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Captain

E-mail: shoxruxkushbakov1@gmail.uz

Abstract. The article categorizes penal institutions based on their civil legal status and thoroughly examines the peculiarities of their civil legal status, experiences of advanced foreign countries, and opinions of legal scholars. The author explores the status of these institutions as legal entities, their contractual relations, property liability, and the specific characteristics of commercial, non-profit, and hybrid penal institutions. Furthermore, the author has studied the legislative issues in this area in the Republic of Uzbekistan and developed proposals and recommendations.

Keywords: penal institutions, civil legal status, private penal institutions, public-private partnership, contractual relations, property liability, legislation of Uzbekistan.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR

Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
Fuqaroviy-huquqiy fanlari kafedrasida dotsenti, kapitan

Annotatsiya. Maqolada jazoni ijro etish muassasalarining fuqaroviy-huquqiy maqomidan kelib chiqib turlarga ajratilgan bo'lib, ularning fuqarolik-huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari, ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari va huquqshunos olimlar fikrlari atroflicha o'rganilgan. Muallif muassasalarning yuridik shaxs sifatidagi maqomi, shartnomaviy munosabatlari, mulkiy javobgarligi va tijoratchi, notijorat, shuningdek gibrid jazoni ijro etish muassasalarining o'ziga xosliklarini ochib bergan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida bu boradagi qonunchilikdagi muammolarni o'rganib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar: jazoni ijro etish muassasalari, fuqarolik-huquqiy maqom, xususiy jazoni ijro etish muassasalari, davlat-xususiy sherikchilik, shartnomaviy munosabatlar, mulkiy javobgarlik, O'zbekiston qonunchiligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N52>

Kirish. Jazoni ijro etish muassasalarini turlariga qarab fuqaroviy-huquqiy maqomini tadqiq etar ekanmiz, avvalo Fuqarolik kodeksining 40-moddasida aks etgan tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan tashkilot sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Zero A. Plyuta ichki ishlar organlari tizimida turlicha faoliyatni amalga oshiruvchi muassasalar jamlanganligini ta'kidlaydi[1]. N.A. Kuldashv bu borada ichki ishlar organlari tizimidagi har qanday muassasani o'ziga xos huquq layoqatiga ega bo'lgan tashkilot deb e'tirof etishiga shubha yo'q, ammo ular turli faoliyatni amalga oshiradilar, – degan fikriga qo'shilib bo'lmaydi[2] deb fikr yuritadi.

Nazarimizda, ichki ishlar organlarining muassasalari hisoblangan jazoni ijro etish muassasalari turlarini tasniflashda fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishishi bilan *tijoratchi, notijorat va gibrid* jazoni ijro etish muassasalari turlariga ajratish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jahon penitensiar amaliyotida jazoni ijro etish muassasalarining an'anaviy ravishda uchta asosiy turi mavjud. Bular: "ochiq" muassasalar, "yopiq" (perimetr atrofida qo'riqlanadigan) va "qamoqxona" tipidagi muassasalar (turmalar) hisoblanadi. Yurtimizda ushbu muassasalarining uch turi ham faoliyat yuritadi. Jumladan, 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksining 45-moddasiga binoan jazoni ijro etish muassasalari quyidagi turlarga bo'linadi: jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan davolash huquqi asosidagi koloniyalar, tarbiya koloniyalari, turmalar, mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar kabi turlariga ajratilgan. Bundan tashqari, Jinoyat-ijroiya kodeksining mazkur moddasiga asosan tergov hibsxonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari vazifasini bajaradi deb belgilangan.

Muhokama. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu muassasalarni fuqaroviy-huquqiy maqomiga qarab *tijoratchi, notijorat va, gibrid* muassasalarga qarab tadqiq etish zarur.

Tijoratchi jazoni ijro etish muassasalari bu xususiy jazoni ijro etish muassasalari hisoblanib, ushbu muassasalar yurtimizda mavjud emas. Tadqiqotlar natijasida shuni ma'lum qilish mumkinki, xususiy jazoni ijro etish muassasalari to'liq mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, ular faoliyatini davlat bilan davlat-xususiy sheriklik asosida olib boradi.

Vanderbilt universiteti professori Christopher Petrella xususiy jazoni ijro etish muassasalari va ularning yuridik maqomi haqida tadqiqotlar olib borgan. Ch.Petrellaning nazarida, xususiy jazoni ijro etish muassasalarining asosiy maqsadi tadbirkorlik, foyda olish hisoblanib, davlat qamoqxonalari qaranganda kamroq shaffoflikka ega[3] ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Devid Garland bu muassasalarni davlat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishib, mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatadi, lekin ularning faoliyati davlatning qonunchilik va nazorat mexanizmlariga to'liq tobidir[4] tarif bergan.

Xususiy jazoni ijro etish muassasalari haqida R.Sparksning fikricha, bu muassasalar yuridik shaxs sifatida tijorat maqsadlarini ko'zlab faoliyat yuritishda, ularning notijorat funksiyalari – jazoni ijro etish va mahkumlarni axloqan tuzatish – davlatning asosiy vazifalariga xizmat qiladi. Huquqshunos ushbu muassasalarining yuridik shaxs sifatida ularga xususiy sektordagi tijorat imkoniyatlaridan foydalanishga yordam berishini, lekin davlat nazorati va qonunchilik doirasidagi cheklovlar ularning faoliyatining tijorat jihatini biroz cheklashini ta'kidlaydi[5].

Muxtasar qilib aytganda, AQSHda xususiy qamoqxonalar yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi va ularning yuridik maqomi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu qamoqxonalar davlat bilan tuzilgan shartnomalar asosida ishlaydi[6].

Fikrimizcha, ushbu muassasalar to'liq yuridik maqomga ega bo'lgan *tijoratchi* yuridik shaxs sifatida aks etadi. Shuningdek, ushbu jazoni ijro etish muassasalarini yuridik shaxs sifatida yurtimizda faoliyat olib borishi maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz.

Shu bois tijorat maqsadini ko'zlovchi xususiy jazoni ijro etish muassasalari tashkil etilishini ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rib chiqsak.

Ijobiy jihatlar:

Janubiy Koreyada xususiy jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs sifatidagi faoliyati davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership, PPP) modeliga asoslanib, mamlakatdagi jazo tizimining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Ushbu tizim Janubiy Koreyaning “Xususiy qamoqxonalarda faoliyati to‘g‘risidagi qonun” (Private Prison Operation Act, 2007)[7] qonuni asosida tartibga solinadi, bu qonun 2007-yilda Somyong qamoqxonasining ochilishi bilan qabul qilingan. Somyong qamoqxonasi yuridik shaxs sifatida “Mas’uliyati cheklangan jamiyat” (Limited Liability Company) shaklida tashkil etilib, davlat bilan shartnoma asosida ishlaydi va tijorat foydasi mahbuslarni qayta tarbiyalashga qaratiladi.

Janubiy Koreyalik olim Kim Chan-Jon o‘zining tadqiqotida “xususiy sektor davlat bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy qilishga yordam beradi”[8] deb ta’kidlaydi, bu esa qamoqxonalarda elektron nazorat tizimlari va innovatsion yondashuvlarning muvaffaqiyatli qo‘llanilishida ko‘rinadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Somyong qamoqxonasida mahbuslarning qayta jinoyat sodir etish darajasi davlat qamoqxonalariга nisbatan 15% ga kam[9], bu xususiy muassasalarning qayta tarbiyalashdagi samarasini ko‘rsatadi.

Natija. Shuningdek, *xususiy sektor davlat byudjetiga yukni yengillashtirib*, mahbus boshiga xarajatlarni 20% ga kamaytirgan[10], bu Davlatimizning *moliyaviy jihatdan qulay model* sifatida xizmat qilishi mumkin. Xorijiy olim Devid Garland esa “The Culture of Control” asarida xususiy qamoqxonalarning “davlat funksiyalarini tijorat sektori bilan birlashtirishdagi ijobiy ta’siri”[11]ni ta’kidlab, ularning zamonaviy jamiyatdagi tartibni ta’minlashdagi rolini qayd etadi.

Nazarimizda, xuddi Janubiy Koreya singari yurtimizda xususiy jazoni ijro etish muassasalarini tashkil etish zarur. Bunga ehtiyoj quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, xususiy jazoni ijro etish muassasalari davlat byudjetiga yukni yengillashtirib berib, jazoni ijro etish muassasalarini yuridik shaxs sifatida operativ boshqaruvdan voz kechiladi;

ikkinchidan, tijoratchi xususiy jazoni ijro etish muassasalarini tashkil etishda mahkumlarni ish bilan ta’minlash tizimi yanada kengayib, mahkumlarni axloq tuzatishning bir vositasi sifatida mehnat qilish imkoniyatlari kengayadi.

Salbiy jihatlari:

Xususiy jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritishi jinoiy jazo infratuzilmasining xususiy sektorga o‘tishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning erkinlikdan mahrum etilishi kabi muhim ijtimoiy jarayonni tijorat manfaatlari bilan bog‘lash xavfini keltirib chiqaradi. Masalan, D. Garland ta’kidlaganidek, “jinoyat va jazo sohasining bozor mexanizmlariga berilgani jamiyatda ijtimoiy adolat, qonuniylik va inson huquqlari kabi qadriyatlar soyasida qolishiga sabab bo‘ladi”[12].

Nazarimizda, xususiy jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida moliyaviy samaradorlik birinchi o‘ringa qo‘yiladi, bu esa jazo ijro etish muassasalarida *insonparvarlik tamoyillariga* rioya qilishni kamaytirishi mumkin. Ayniqsa, ma’muriyatning xodimlar sonini kamaytirish, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va ta’lim-tarbiya jarayonlariga kam mablag‘ ajratish orqali xarajatlarni qisqartirishga urinishi mahkumlarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzish holatlarini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, xususiy koloniyalarning yuridik shaxs sifatida mustaqil shartnomalar tuzish huquqi ularning faoliyatida shaffoflik va davlat nazorati mexanizmlarini zaiflashtiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, xususiylashtirilgan jazo muassasalari mavjud bo'lgan AQSH kabi davlatlarda mahkumlar soni sezilarli darajada ko'paygan. Masalan, 2000–2016-yillar orasida xususiy jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlar soni 47% ga oshgani kuzatilgan[13]. Bu esa xususiy jazoni ijro etish muassasalari tomonidan *foyda olish maqsadida* mahkumlar sonini ko'paytirishga qaratilgan siyosat yuritilishi xavfini tasdiqlaydi.

Shuningdek, xususiy koloniyalar davlatning jazo siyosatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, ular o'z lobbichilik faoliyati orqali jazo muddatlarini uzaytirish, ozodlikdan mahrum etish choralari ko'paytirishga harakat qilishi mumkin. Bu holat demokratiya va huquq ustuvorligi tamoyillariga zid keladi.

Yuqoridagilardan tahlillardan kelib chiqib nazarimizda yurtimizda xususiy jazoni ijro etish muassasalarini tashkil etishda Janubiy Koreya tajribasiga tayanib tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Notijorat jazoni ijro etish muassasalariga boshqa jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan davolash huquqi asosidagi koloniyalar, tarbiya koloniyalari, turmalar, mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalarini kiritish mumkin.

Shu o'rinda, ushbu jazoni ijro etish muassasalarini ham *tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va daromad (foyda) olishga qaratilmagan, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan*[14] jazoni ijro etish muassasalariga ajratish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jazoni ijro etish muassasalariga umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalar hamda mahkuma ayollar, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan mahkum shaxslar ushbu toifa mahkumlar uchun mo'ljallangan jazoni ijro etish koloniyalarini kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, ushbu jazoni ijro etish muassasalarining asosiy maqsadi foyda olishni maqsad qilmagan bo'lib, asosiy maqsad Q.B. Qodirovning fikricha, mahkumlarda ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanish ehtiyojini shakllantirishdan iborat va bu vositalarni qo'llashda, mahkumlarning mehnatidan daromad olish maqsadi bo'lmasligi kerak[15]. Bu borada huquqshunos olimlar fikricha, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik bilan shug'ullanishi muayyan foyda ko'rishini mumkinligini belgilaydi. Faqatgina notijorat yuridik shaxslarning asosiy maqsadi (yordamchi yoki boshqa maqsadlar bundan mustasno) foyda olish bo'lmaydi, xolos[16] degan fikrni ilgari suradi.

Shu o'rinda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi muassasalar turiga kiruvchi 7-son JIEKga 5-son JIEKdagi laminat ishlab chiqarish dastgohlari o'tkazilib, ishga tushirildi. Natijada 15 nafar mahkumlar ish bilan ta'minlandi. "LOGBO TIXTIL" MCHJ bilan hamkorlik shartnomasi tuzilib, 70 dona maxsus trikotaj tikuv dastgohlari olib kirilib, foydalanishga topshirildi. Natijada 80 nafar mahkumlar ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonasida zamonaviy yo'lak plitkalari ishlab chiqarish sexini yo'lga qo'yish maqsadida, "SHOVKAT BREND HOUSE" MCHJ bilan tuzilgan hamkorlik shartnomasiga asosan, tadbirkor tomonidan olib kelingan 50,0 mln. so'mlik 1 dona meshalka, 1 dona vibrastol dastgohlari o'rnatildi hamda har — xil turdagi qoliplar olib kelinib, foydalanishga topshirildi. Natijada 1 smenada 15 nafar mahkumlar qo'shimcha ish o'rinlari bilan ta'minlandi[17].

Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu muassasalarning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki mahkumlarni ish o‘rinlari bilan ta‘minlab, ularni axloqan tuzalishiga ko‘maklashish hisoblanadi.

Zero, FKning 71-moddasi 4-bandida belgilangan qoidada, tijoratchi bo‘lmagan tashkilot o‘zining ustavida belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin, degan qoidada ham o‘z tasdig‘ini topgan. Demak, tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar o‘z ustavida belgilangan maqsadlarga mos keladigan doirada tadbirkorlik faoliyati bilan ham shug‘ullana oladi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunida ham o‘z aksini topgan[18].

Shuning uchun jazoni ijro etish muassasalarining mustaqil mablag‘lari xo‘jalik faoliyati orqali va o‘z ustavlarida nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyati natijasida to‘plangan mablag‘lari hisobiga shakllanadi. Shuningdek, FKning 180-moddasi 2-qismiga asosan bunday faoliyatdan olingan daromad va ushbu daromadga sotib olingan mol-mulk ichki ishlar organlarining mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi[19].

Umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalar jazoni ijro etish muassasalari sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatga kirishishida o‘zaro farq qilmaydi. Ularning bir-biridan farqli jihatlari saqlanayotgan kontingent va jazoni ijro etish tizimidagi tartibda farqlanadi.

Misol uchun, *umumiy tartibli* koloniyalarda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar hamda og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar jazoni o‘tasa *qattiq tartibli* koloniyalarda ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar hamda ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tagan va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan ayollar saqlanadi. *Maxsus tartibli* koloniyalarda ozodlikdan mahrum qilinib, o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan erkaklarni, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar hamda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan erkaklar ham saqlanadi.

Shuningdek, ushbu koloniyalarda mahkumlar oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari ajratiladigan pul miqdori farqlanadi. Jumladan, belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining *umumiy tartibli 70,3 foizigacha, qattiq tartibli 52,7 foizi maxsus tartibli 35,2 foizi* bo‘lgan summasigacha ishlab topgan pullaridan ishlatishlari mumkin[20].

Mahkuma ayollar, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan mahkum shaxslar ushbu toifa mahkumlar uchun mo‘ljallangan jazoni ijro etish koloniyalarini tasniflashda o‘ziga xoslikni uchratish mumkin. Chunki, ushbu muassasalarda saqlanadigan mahkumlar qilgan jinoyatiga qarab emas balki, jinsi yoki ozodlikda sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarida ishlaganligiga qarab, fuqaroligiga qarab farqlanadi.

Ushbu jazoni ijro etish muassasalari amaliyotda mavjud bo‘lsa-da JIKning 45-moddasida o‘z aksini topmagan, lekin O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi 128-son qarorining 1-ilovasi “Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to‘g‘risida” nizomining 9-bandida mahkuma ayollar, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi

bo'lmagan mahkum shaxslar uchun mo'ljallangan jazoni ijro etish muassasalari deb yozilgan. *Shu bois, jinoyat-ijroiya qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish, tizimlashtirish va uyg'unlashtirish maqsadida JKning 45-moddasiga ushbu turdagi jazoni ijro etish muassasalarini kiritish maqsadga muvofiq.*

Bunday muassasalarni nomlashni V.A. Utkin, M.V. Kiselyov va S.M.Savushkinlar "ko'p rejimli" muassasalar[21] deb atasa, I.K. Kalmokov maxsuslashtirilgan koloniya deb atashni taklif[22] qilganlar.

Nazarimizda, ushbu muassasalarni "*ko'p rejimli*" muassasalar deb atash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, ushbu muassasalarda saqlanadigan mahkuma ayollar, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan mahkum shaxslar sud tomonidan tayinlangan rejim turiga muvofiq ajratilgan uchastkalarida o'z jazosini o'taydilar uchastkalarda o'tashda misol uchun ayollar koloniyasida voyaga yetmagan mahkumalar va voyaga yetgan mahkumalar alohida saqlanadi va jazoni o'tash rejimi ham alohida bo'ladi.

Ushbu muassasalar o'z fuqaroviy-huquqiy maqomiga ega bo'lib, yuridik shaxs sifatida faoliyat olib boradi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishishida boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi umumiy, qattiq va maxsus tartibli jazoni ijro etish muassasalardan farqlanmaydi.

Fikrimizcha, *tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi umumiy, qattiq va maxsus tartibli* jazoni ijro etish koloniyalari yoki "*ko'p rejimli*" jazoni ijro etish muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, ushbu muassasalar notijorat muassasa tipiga mansub bo'lib, asosiy maqsadi foyda olishni maqsad qilmagan xolda mahkumlarda ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanish ehtiyojini shakllantirishdan iborat va bu vositalarni qo'llashda, mahkumlarning mehnatidan daromad olish maqsadi bo'lmasligi kerak;

ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ushbu muassasalar mustaqil mablag'larini xo'jalik faoliyati orqali va o'z ustavlarida nazarda tutilgan cheklangan tartibda tadbirkorlik faoliyati natijasida to'plangan mablag'lari hisobiga shakllanadi hamda FKning 180-moddasi 2-qismiga asosan bunday faoliyatdan olingan daromad va ushbu daromad sotib olingan muassasaning mustaqil tasarrufiga o'tadi va alohida balansda hisobga olinadi;

uchinchidan, ushbu muassasalar fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishishi orqali bir-biridan farqlanmaydi. Ular asosan mahkumlarning qilgan jinoyatlariga qarab jazoni o'tash rejimi bilan yoki jinsi, ishlagan ishi (*sud va HMQOning sobiq xodimlari*), fuqaroligiga (*chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar*) qarab farqlanadi.

Shuningdek, faoliyati daromad (foyda) olishga qaratilmagan, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan jazoni ijro etish muassasalari sirasiga Tergov hibsxonalari, davolash huquqi asosidagi koloniyalar, tarbiya koloniyalari, turmalar, mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalarni kiritish mumkin.

Yurtimizda, Tergov hibsxonalari 11 ta, davolash huquqi asosidagi koloniyalar, tarbiya koloniyalari, turmalar, mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar 1 tadan mavjud.

Ushbu muassasalar yuridik shaxs hisoblansada, na tijorat maqsadini ko'zlab faoliyat yuritadi na notijorat tashkilot bo'la turib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Bir so'z bilan aytganda V.R. Topildiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, ushbu muassasalar o'z nizomlari doirasida

o'zlari yuritayotgan vazifalarni amalga oshirib, turli fuqaroviy huquqiy bitimlar tuzadilar, o'zlariga birlashtirilgan mulkdan operativ boshqarish huquqiy asosida foydalanadilar[23].

Tergov hibsonalari va boshqa jazoni ijro etish muassasalari mahkumlarning sog'lig'i va nomulkiy huquqlarini ta'minlashda fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishadi. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2019-yil 23-martdagi 67-son buyrug'iga binoan mahkumlarni tish protezlash yordamini tashkil qilishda protez-ortopedik mahsulotlar, ortopedik oyoq kiyimlar, protezlar uchun oyoq kiyimlar va bandajlarni yasash protez-ortopedik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan shartnomalar asosida amalga oshiradi. Shuningdek, protezlashga ketadigan xarajatlar JIEM smeta mablag'lari hisobidan to'lanadi[24]. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu jazoni ijro etish muassasalari boshqa yuridik shaxslar bilan shartnoma tuza oladi.

FKning 703-moddasiga ko'ra haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi **tibbiyotga** oid xizmatlar ko'rsatish shartnomalariga tatbiq etilishi belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Tergov hibsonalari faqatgina ixtisoslashgan sohasiga qarab ya'ni mahkumlarning huquqlarini himoya qilib, ularning axloqan tuzalishiga ko'maklashish borasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirisha oladi.

Bundan tashqari, davolash huquqi asosidagi koloniya va mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxonalar faoliyati ham notijorat daromad (foyda) olishga qaratilmagan, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan turga mansub bo'lib, ushbu muassasalar N.A. Kuldashev to'g'ri ta'kidlaganidek, notijorat yuridik shaxs bo'lganligi uchun tadbirkorlik faoliyatida, foyda olishni maqsad qilishga qaratilgan va shu kabi shartnomalarda ishtirok etmaydi[25].

Gibrid jazoni ijro etish muassasalari sirasiga manzil-koloniya-larini kiritish mumkin. Yuqoridagi huquqshunos olimlar ham ushbu muassasani ochiq turdagi muassasa deyishiga ham sabab shudir. Yurtimizda huquqshunoslar manzil-koloniya-larni tijoratchi muassasalar sifatida e'tirof etadilar. N.Narmatov: manzil-koloniya-larni bir tomondan, vakolatli rasmiy davlat organi, ya'ni muassasadir; ikkinchi tomondan, xo'jalik yurituvchi subyekt, ya'ni tijoratchi yuridik shaxs", – degan fikrni ilgari surib, "hozirgi bozor munosabatlari sharoitida manzil-koloniya-larining huquqiy holati o'zgardi" [26], – degan qat'iy fikrni aytadi. O.Kamalov esa bu fikrni ma'qullab, JIED tizimidagi manzil-koloniya-larini ham shunday korxonalar sirasiga kiritadi[27]. To'g'ri, haqiqatan ham manzil-koloniya-lar hozirgi davrda to'liq bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida faoliyat yuritmoqda deb ta'riflasa N.A. Kuldashev ushbu muassasa tizimidagi boshqa tuzilmalarga qaraganda, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda faol qatnashmoqda, lekin ularning huquqiy shakli notijorat yuridik shaxs ekanligi yoddan chiqmasligi kerak. Boshqacha aytganda, tijoratchi yuridik shaxslarning asosiy faoliyati foyda olishga qaratilgandir, ichki ishlar organlari va uning tizimidagi JIED asosiy faoliyatining maqsadi bunday emas[28] deb o'z nazariya-larni ilgari suradi.

Fikrimizcha, JIEDni asosiy faoliyatining maqsadiga qarab uning tarkibiy tuzilmasi hisoblangan manzil-koloniya-larining asosiy faoliyatini belgilash noto'g'ri chunki FKning 39-moddasiga binoan manzil-koloniya-lar fuqarolik huquqiy munosabatlarda mustaqil faoliyat olib boruvchi o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira

oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladi yuridik shaxs hisoblanadi.

Shuningdek uning bir tarafdan faoliyati foyda olishga qaratilgan bo'lib, hatto JIKning 85-moddasida belgilangan tartibda respublika byudjeti hisobidan berilishi kerak bo'lgan oziq ovqatlar manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotganlar mahkumlarga berilmasligi hamda manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan, kasalligi tufayli yoki intizomiy bo'linmaga kiritilib ishdan ozod qilingan mahkumlarga manzil-koloniylarning korxonalari, muassasalari va tashkilotlari hisobidan ovqat berilib, ovqatning qiymati keyinchalik mahkumlarning oylik ish haqidan ushlab qolinishi, 86-moddasiga binoan, manzil-koloniyalarda o'tayotgan shaxslarga respublika byudjeti hisobidan belgilangan namunada kiyim, mavsumga qarab, mahkumning jinsi va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda ichki kiyim va poyabzal bilan ta'minlanishi belgilanmagani va ular faqat o'z hisobidan kiyinishlari aynan manzil-koloniylarini asosiy maqsadi tijoratga qaratilganini lekin asosiy maqsadi JIKning 7-moddasiga binoan mahkumlarni axloqan tuzatish bo'lganligi sababli ushbu muassasalar *gibrid jazoni ijro etish muassasalari* sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birgalikda O.A. Kamalov to'g'ri ta'kidlaganidek, manzil-koloniylari tegishli tuman hokimliklari bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, ishlab chiqarish korxonalarida, qurilish tashkilotlarida, xo'jaliklarda axloq tuzatish ishlariga mahkum qilingan shaxslar mehnatidan foydalanish orqali tushgan pul mablag'lari evaziga o'z faoliyatini moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlaydilar. Shu boisdan, ularning moliyaviy smetasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalar va davlat byudjetida turuvchi boshqa tashkilotlarning smetalaridan farq qiladi[29].

Misol uchun, birgina JIED huzuridagi 46-son MKda jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarga kasb-hunar o'rgatish maqsadida, 2023-yil 25-aprel kuni "Aziya plast star" MCHJ bilan hamkorlik shartnomasi imzolaniib, plastmas qoliplar ishlab yo'lga qo'yildi. Natijada 20 nafar mahkumlar ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, ushbu manzil-koloniya 2022-yilning 5 oyi davomida tuzilgan turli fuqarolik-huquqiy shartnomalar evaziga 1,563 mlrd foyda ko'rgan bo'lsa, 2023-yil 5 oyi davomida 6,268 mlrd so'm foyda ko'rdi[30].

Bu bilan manzil-koloniylarning mol-mulki unga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishli ekani davlat tonidan barcha mahkumlarga berilgan huquqlar, oziq – ovqat va kiyim-kechaklar bilan ta'minlanmasligi mahkumlarni va ular saqlanayotgan jazoni ijro etish muassasalarini tijorat maqsadini ko'zlab faoliyat olib borishiga undaydi. Shuningdek, JIKning 115-moddasiga binoan, manzil-koloniyalarda mahkumlar mehnati JIKda belgilab qo'yilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda mehnat to'g'risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bunday qoida boshqa jazoni ijro etish muassasalarida saqlanadigan mahkumlarga oid normalarda nazarda tutilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ham tijorat, ham notijorat xususiyatlarni o'zida jamlagan *gibrid jazoni ijro etish muassasasi hisoblangan* manzil-koloniylarini fuqarolik-huquqiy maqomining o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, jazoni ijro etish muassasalarining boshqa turlaridan farqli ravishda manzil-koloniylari tijoratchi tashkilot hisoblanib, asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan bo'lsada, muassasa sifatida tashkil etilganligi tufayli FKning 76-moddasiga binoan notijorat tashkilot hisoblanadi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi "Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarni ijro etish muassasalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 128-son qarorining 1-ilovasi "Ozodlikdan mahrum etish turidagi jazoni ijro etish muassasalari to'g'risida" nizomining 16-bandiga binoan manzil-koloniyalarning yashash va ishlab chiqarish hududlariga ajratilgan uchastkalarga bo'linmaydi hamda koloniya uchun zarur moddiy-texnik vositalar xarid qilinsa, boshqa jazoni ijro etish muassasalari singari davlat kontrakti emas, balki boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuziladi;

uchinchidan, o'z faoliyati natijalariga ko'ra iqtisodiy mustaqillikka ega, ya'ni tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va fuqarolar bilan tuzilgan shartnomalar (tashkilotlar va fuqarolarning mol-mulklarini qo'riqlash shartnomasi, boshqa vazirlik, muassasa, korxona va tashkilotlarga maxsus kontingent tarkibi hisobidan ishchi kuchlarini taqdim etishga qaratilgan shartnoma kabilar) yuzasidan kelib chiqadigan majburiyatlarga o'z mol-mulki bilan javob beradi va uning mustaqil mulkiy javobgarligi xususiyatlari o'zining byudjet vositalariga birlashtirilgan moliyaviy-smetali prinsipga asoslanadi.

Mazkur o'ziga xos jihatlari esa JIED tizimidagi manzil-koloniya faoliyatining fuqarolik huquqining subyekti sifatida fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishini ta'minlaydi va fuqarolik huquqining boshqa subyektlari bilan teng huquqlarda faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Bugungi kunda ushbu muassasalarning turlari va ularning fuqarolik-huquqiy maqomining o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, ushbu muassasalarni fuqaroviy-huquqiy maqomiga qarab tijoratchi, gibril va notijorat muassasalarga qarab tadqiq etish hamda notijorat muassasalarining o'zining yuridik maqomidan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va daromad (foyda) olishga qaratilmagan, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan jazoni ijro etish muassasalariga ajratildi;

ikkinchidan, Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, xususiy jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini joriy etish tavsiya etildi;

uchinchidan, manzil-koloniya faoliyati boshqa jazoni ijro etish muassasalari singari davlat kontrakti emas, balki boshqa fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzilishiga asoslanib, gibril jazoni ijro etish muassasasi sifatida tadqiq etildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Plyuta A.V. Pravo operativnogo upravleniya v uchrejdeniyax organov vnutrennix del: Dis. ... kand. yurid. nauk. – SPbg., 2005. – S.160.
2. Kuldashv N.A. Ichki ishlar organlari tomonidan yetkazilgan zararni qoplashning fuqarolik-huquqiy masalalari: Yurid. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T., 2010. – B. 36.
3. Petrella, Christopher. "The Color of Corporate Corrections, Part II: Contractual Exemptions and the Overrepresentation of People of Color in Private Prisons." *Radical Criminology*, no. 2, 2014.
4. Garland, D. *The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society*. Oxford University Press, 2001, pp. 178-183.
5. Harding, R., Ireland, R., & Sparks, R., *Prisons and the Problem of Order*, Oxford University Press, 1996, pp. 145-150
6. Cavadino, M., & Dignan, J., *The Penal System: An Introduction*, SAGE Publications, 5th ed., 2013, pp. 298-305

7. 대한민국 "민간교도소 운영에 관한 법률" (2007). Elektron manba: <http://www.law.go.kr/법령/민간교도소운영에관한법률> (murojaat vaqti: 06.04.2025 y.).
8. Kim Chang-Jong. "Private Prisons in Korea: A Case Study of PPP." *Korean Journal of Criminology*, Vol. 22, No. 1, 2010, pp. 45-60.
9. Korean Correctional Service. "Annual Report on Prison Operations," 2020, p. 34.
10. Korea Institute of Public Finance. "Economic Impact of Private Prisons in Korea," 2015, pp. 12-15.
11. Garland, D. *The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society*. Oxford University Press, 2001, pp. 178-183.
12. Garland, D. *The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society*. Oxford University Press, 2001, pp. 178-183.
13. Sentencing Project. Private Prisons in the United States. 2017 yil. Elektron manba: <https://www.sentencingproject.org/publications/private-prisons-united-states/>
14. Kokorin I.S. Grajdansko-pravovaya otvetstvennost za vred, prichinenniy primeneniye fizicheskoy sili, spetsialnix sredstv i oruziya sotrudnikami organov vnutrennix del: Dis. ... kand. yurid. nauk. – SPbg., 2005. – S. 49-50.
15. Qodirov Q.B. Mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishining o'ziga xos xususiyatlari. Ozodlikni mahrum qilish joylarida inson huquqlarini ta'minlash: O'zbekiston tajribasi: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. IIV Akademiyasi. 2022 y. B. 121.
16. Fuqarolik huquqi. Darslik mualliflar jamoasi. – T.: TDYUU. 2009. – B.198.
17. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti ishlab chiqarishni tashkil etish boshqarmasi 2023 yilning 5 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotnomasidan.
18. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonuni// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 yil 11 sentyabr. № 03/19/566/3734-soni
19. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/111189>. (murojaat etilgan sana: 11.02.2024 y.).
20. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/111189> (murojaat etilgan sana: 11.02.2024 y.).
21. Utkin V.A., Kiselyov M.V., Savushkin S.M. "Gibridnie" i "multirejimnie" penitentsiarnie uchrejdeniya: preimushestva i riski //Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Pravo. – 2018. – №. 29. – S. 103-113.
22. Kolmakov I. Jazoni ijro etish muassasalarini yuridik shaxs sifatida maqomi, belgilari va turlariga doir ayrim mulohazalar //Mejdunarodnaya konferensiya akademicheskix nauk. – 2023. – T. 2. – №. 4. – S. 16-18.
23. Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi: Darslik. – T.:Yuridik adabiyotlar publish, 2022. – B.201.
24. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2019 yil 23 martdagi "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tergov hibsonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning tibbiy-sanitariya ta'minoti bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 67-son buyrug'i. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/4344511> (murojaat etilgan sana 27.07.2023 y.)
25. Quldashev N.A. Ichki ishlar organlari fuqarolik huquqining subyekti. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining axborotnomasi. – Toshkent, 2014. – №4. – B.29.
26. Narmatov N.S. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi "Qo'riqlash" birlashmasining yuridik shaxs sifatidagi faoliyatini huquqiy tartibga solish: Yurid. fan. nomz. ... dis. – T., 2002. – B. 32.

27. Kamalov O.A. Ichki ishlar organlarini moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash bo'yicha davlat kontrakti: Yurid. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T., 2005. – B. 11.
28. Kuldashv N.A. Ichki ishlar organlari tomonidan yetkazilgan zararni qoplashning fuqarolik-huquqiy masalalari: Yurid. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T., 2010. – B. 50.
29. Kamalov O.A. Ichki ishlar organlarini moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash bo'yicha davlat kontrakti: Yurid. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T., 2005. – B. 42.
30. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti ishlab chiqarishni tashkil etish boshqarmasi 2023 yilning 5 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotnomasidan.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).